Yosh tadqiqotchi tomonidan “Toshkent shahri bozorlari” mobil ilovasi yaratildi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayachn doktoranti Shahodat Oxunjonova tomonidan “Toshkent bozorlaridagi o’zgarishlar (1991-2020 yillar)” mavzusida tadqiqot olib borilmoqda. Ushu tadqiqot ishi doirasida “Toshkent shahri bozorlari” mobil ilovasi yaratildi. Ushbu mobil ilova Toshkent shahri bozorlari soni va ixtisoslashuvi haqida yaxlit tushuncha hosil qilish va bozorlarni masofaga nisbatan tanlash imkonini beradi.

Dastur sayyohlar, Toshkent shahri aholisi va mehmonlari, ya’ni ichki sayyohlik uchun ham mo’ljallangan bo’lib, o’zbek, rus va ingliz tillarida yaratilgan. Bu dastur bozorga borishda manzilni aniq ko’rsatish imkoniyatini beradi. Barcha poytaxt mehmonlari uchun bozorlarni ko’rish va xarid ehtiyoji sezilganida ko’rsatilgan bozor turi bo’yicha yo’nalishni tanlash imkoniyati mavjud. Ushbu dasturni quyidagi ilova orqali yuklab olish mumkin:

https://play.google.com/store/apps/details?id=com.dasturchi.bozorlar1

Mazkur mobil ilova tayanch doktorant tashabbusi bilan tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan. Dasturni yaratish uchun fundamental yoki amaliy loyihaga O’zR FA tomonidan hech qanday mablag’ ajratilmagan.